



TOSHKENT VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI INVESTITSIYA VA QURILISH STATISTIKASI BO'LIMI

2019 YILNING YANVAR- iyul
OYLARIDA QURILISH ISHLARI

Raqamlar:

Qurilish ishlari
hajmi -
2160,7 mlrd.so'm
Yirik pudrat
tashkilotlari ulushi
-20,4 %
Kichik tashkilotlar
va mikrofirmalar
ulushi -
52,3 %
Norasmiy sektor
ulushi –
27,3 %

Joriy yilning yanvar- iyul oylarida Toshkent viloyatida jami 2160,7mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 132,9 % ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik pudrat tashkilotlari tomonidan 440,0 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 20,4% hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 132,2% ni


tashkil etdi.

Kichik korxonalar va tashkilotlar, mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 52,3% yoki 1130,9 mlrd.so'm to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 128,1%ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa 27,3 % yoki 589,8 mlrd.so'm to'g'ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 144,4 %ni tashkil etdi.

Yirik pudrat tashkilotlari	<ul style="list-style-type: none">• hajmi - 440,0 mlrd.so'm• o'sish sur'ati - 132,2 %
Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar	<ul style="list-style-type: none">• hajmi - 1130,9 mlrd.so'm• o'sish sur'ati - 128,1 %
Norasmiy sektor	<ul style="list-style-type: none">• hajmi - 589,8 mlrd.so'm• o'sish sur'ati - 144,4%



IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA QURILISH ISHLARI



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi 1570,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi nisbatan 631,7 mlrd so'mga ko'paygan.

Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 262,5 mlrd .so'mni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 69,2mlrd. so'mga ko'paygan.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi esa 328,1 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yil davriga nisbatan 83,7 mlrd. so'mga ko'paygan.



Yanvar- iyul oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi




Yanvar- iyul oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 21,5 % ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,7 % ga kamaydi. Bunda kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 41,0 % va norasmiy sektorning ulushi 37,5 % ni (1,8 % ga ko'paydi) tashkil etdi.

Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish ishlari bo'yicha yirik pudrat tashkilotlarining ulushi 32,5 % ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 5,4% ga kamaydi. Shuningdek, kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 67,5 % ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 5,4 % ga ko'paydi .

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 5,3 % ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 4,7 % ga ko'paydi. Bunda kichik tashkilotlar va mikrofirmalar hissasiga 94,7% to'g'ri kelib o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 4,7 % punktga kamaydi.



2019 yil yanvar- iyul oylarida hududlar bo'yicha qurilish ishlari



Qurilish ishlari hajmida hududlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining tumanlar bo'yicha tarkibida Zangiota tumani, yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda bajarilgan qurilish ishlari hajmi yanvar- iyul oyida 293,9 mlrd.so'm yoki o'tgan yilga nisbatan 131,8 %ga bajarildi.

	Jami		
	Bajarilgan qurilish ishlari hajmi (mlrd.so'm)	2018 yil yanvar-iyulga nisbatan % da	Jami qurilish pudrat ishlari hajmida hududlarning ulushi
Toshkent viloyati	2160,7	132,9	100,0
Nurafshon shahri	82,1	124,2	3,8
Olmalik shahri	112,7	125,6	5,2
Angren shahri	98,6	137,1	4,6
Bekobod shahri	101,2	132,3	4,7
Ohangaron shahri	69,7	136,3	3,2
Chirchiq shahri	108,4	132,4	5,0
Yangiyo'l shahri	47,9	169,0	2,2
Oqqo'rg'on tumani	55,2	123,8	2,6
Ohangaron tumani	55,5	121,6	2,6
Bekobod tumani	66,8	127,4	3,1
Bo'stonliq tumani	117,9	128,1	5,5
Bo'ka tumani	45,5	121,2	2,1
Quyichirchiq tumani	41,8	163,8	1,9
Zangiota tumani	293,9	131,8	13,5
Yuqorichirchiq tumani	154,8	132,9	7,2
Qibray tumani	173,2	158,7	8,0
Parkent tumani	115,1	124,3	5,3
Piskent tumani	32,4	135,2	1,5
O'rtachirchiq tumani	111,9	120,6	5,2
Chinoz tumani	64,0	139,4	3,0
Yangiyo'l tumani	72,2	150,9	3,3
Toshkent tumani	139,9	127,1	6,5




QURILISH ISHLARI HAJMI HUDUDLAR KESIMIDA


Shuningdek, qurilish ishlari hajmining eng yuqori darajasi quyidagi hududlarda kuzatildi:

- Qibray tumanida (173,2 mlrd. so'm yoki 158,7 %), Yuqorichirchiq tumanida (154,8 mlrd. so'm yoki 132,9 %), Toshkent tumanida (139,9 mlrd. so'm yoki 127,1 %) va Bo'stonliq tumanida (117,9 mlrd. so'm yoki 128,1 %) bajarilgan.


Qurilish ishlari hajmining eng past darajasi quyidagi hududlarda kuzatildi:

Piskent tumani (32,4 mlrd. so'm yoki 135,2 %), Quyichirchiq tumani (41,8 mlrd. so'm yoki 163,8 %) va Bo'ka tumani (45,5 mlrd. so'm yoki 121,2 %) qurilish-pudrat ishlari amalga oshirildi;





2019 yilning yanvar- iyul oylarida qurilish ishlari umumiy hajmida hududlarning ulushi (umumiy hajmga nisbatan %da)



Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlarining katta qismi Zangiota tumanida bajarilgan bo`lib, viloyatda bajarilgan jami qurilish ishlarining 13,5 %ini, Qibray tumanida 8,0 %ni va Yuqorichirchiq tumanida bajarilgan qurilish ishlari esa 7,2 %ni tashkil etdi.

Viloyatda amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi bo`yicha past ko`rsatkichlar: Piskent tumanda bu ko`rsatkich eng past 1,5 %ni tashkil etdi. Yangiyo'l shahri 2,2 %ni va Quyichirchiq tumanida 1,9 %dan tashkil etganligini kuzatishimiz mumkin.

Qurilish ishlari mavsumining boshlanishi bilan hududlarda bajariladigan qurilish ishlarining hajmi ortib, ularning viloyatdagi ulushi ham o`zgarib boradi.



“Investitsiya va qurilish statistikasi” bo’limi

Nashirga mas’ul: B. Djavliyev

Tel.: 230-86-70, (71)